



FARG‘ONA VILOYATI

STATISTIKA BOSHQARMASI

FARG‘ONA  
VILOYATINING  
DEMOGRAFIK HOLATI

*2022- yil  
yanvar-sentabr*




**FARG'ONA VILOYATINING DOIMIY AHOLISI**
*2022- yil 1- oktabr holatiga, dastlabki ma'lumotlar*

Farg'ona viloyatida 2022- yil 1- oktabr holatiga doimiy aholi soni **3 954,2** ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan **57,8** ming kishiga yoki **1,4 %** ga ko'paydi. Jumladan, shahar aholisi soni **2 220,2** ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi **56,1 %**), qishloq aholisi soni **1 734,0** ming kishi (**43,9 %**)ni tashkil etdi.

**Doimiy aholi soni**
**3 954,2** *ming kishi*
**Tabiiy o'sish**
**+59,9** *ming kishi*
**Doimiy aholining yashash joyi bo'yicha taqsimlanishi**
**Shahar**

**56,1%**
**Qishloq**


**43,9%**
**Aholining tabiiy harakati, ming kishi**

**2021**  
■ Tug'ilganlar soni

■ Vafot etganlar soni

**2022**  
—●— Aholining tabiiy o'sishi


### Farg'ona viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar

2022- yil yanvar-sentabr



### Yosh guruhlari bo'yicha aholi soni


2022- yil 1- yanvar holatiga



2022- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, viloyat doimiy aholisi sonining **31,1 %** i mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, **57,0 %** i mehnatga layoqatli yoshdagilar va **11,9 %** i mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

## Yosh guruhlari va jinsi bo'yicha aholi tarkibi


2022- yil 1- yanvar holatiga



2022- yil 1- yanvar holatiga Farg'ona viloyatining doimiy aholisi tarkibini jinsi va yosh guruhlari bo'yicha (65 yoshgacha bo'lganlar 5 yillik yosh intervalida, 65 va undan yuqori yoshdagilar esa jamlangan holda) tahlil qilinganda, erkaklar tarkibida 4 yoshgacha bo'lgan bolalar eng yuqori ko'rsatkichni, ya'ni **223,2 ming kishini** tashkil etgan. Erkaklar tarkibida eng kam aholi soni 60-64 yoshlilar hissasiga to'g'ri kelib **72,7 ming kishini** tashkil etdi. Shuningdek, ayollar tarkibida ham 4 yoshgacha bo'lgan qizlar eng yuqori ko'rsatkichni, ya'ni **207,0 ming kishini** tashkil etgan bo'lsa, eng kam ayollar soni 60-64 yoshlilar hissasiga to'g'ri kelgan, ya'ni **79,1 ming kishini** tashkil etgan.


## Tug'ilishda kutilayotgan umr davomiyligi

2022- yil 1- yanvar holatiga



2022-yilning 1-yanvar holatiga Farg'ona viloyati aholisining kutilayotgan o'rtacha umr ko'rish davomiyligi **74,5** yoshni tashkil etgan. Erkaklar uchun **72,5** yoshga, ayollar uchun esa **76,5** yoshga teng. Shahar joylar **74,7** yosh qishloq joylar uchun kutilayotgan o'rtacha umr ko'rish davomiyligi **74,1** yoshni tashkil etgan.




**Doimiy aholi sonining taqsimlanishi**
*2022- yil 1- oktabr holatiga*

**Doimiy aholi sonining hududlar bo'yicha taqsimlanishi**
*1- oktabr holatiga, ming kishi*

	2021- yil	2022- yil	O'sish sur'ati, % da
<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>3 878,0</b>	<b>3 954,2</b>	<b>102,0</b>
<i>shaharlar:</i>			
Farg'ona	297,7	304,0	102,1
Qo'qon	259,2	263,0	101,5
Quvasoy	96,5	98,3	101,9
Marg'ilon	242,1	245,7	101,5
<i>tumanlar:</i>			
Oltiariq	217,9	222,3	102,0
Qo'shtepa	197,1	202,1	102,6
Bag'dod	222,3	226,7	102,0
Buvayda	234,9	240,1	102,2
Beshariq	233,5	237,1	101,5
Quva	264,8	269,4	101,7
Uchko'prik	235,9	241,5	102,4
Rishton	207,3	211,1	101,8
So'x	80,2	81,5	101,6
Toshloq	208,6	213,0	102,1
O'zbekiston	245,2	249,5	101,8
Farg'ona	219,8	224,6	102,2
Dang'ara	179,8	184,0	102,4
Furqat	121,2	123,6	102,0
Yozyovon	114,0	116,5	102,2

### Farg'ona viloyati bo'yicha aholi zichligi

2022- yil 1- oktabr holatiga, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi




Farg'ona viloyatida 2022- yil 1- oktabr holatiga 1 kvadrat kilometrda o'rtacha **585,0** kishi to'g'ri kelgan. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda **11,2** kishiga ortgan (2021- yilda 1 kv.km.ga **573,8** kishi).


Hududlar bo'yicha qaraydigan bo'lsak, aholi zichligini eng yuqori ko'rsatkichi Qo'qon shahrida **7 109,1** kishi, Marg'ilon shahrida **5 991,5 kishi**, Farg'ona shahrida **3 030,9** kishi, Uchko'prik tumanida **878,1** kishi, Toshloq tumanida **876,1** kishini tashkil etgan bo'lsa, eng past ko'rsatkichlar Yozyovon tumani **286,3** kishi, Beshariq tumanida **306,3** kishi, Oltiariq tumanida **352,4** kishi, O'zbekiston tumanida **362,1** kishi. So'h tumanida **368,8** kishini tashkil etgan.

### Farg'ona viloyati bo'yicha aholi zichligi dinamikasi

1- oktabr holatiga, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi












## QAYD ETILGAN TUG'ILISHLAR



Hududlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti  
2022- yil yanvar-sentabr, kishi

Farg'ona sh	5 301	23,5 %
Uchko'prik.	5 038	28,1 %
Qo'qon sh.	4 988	25,5 %
Marg'ilon sh.	4 936	27,0 %
Buvayda	4 723	26,5 %
Farg'ona	4 421	26,5 %
Bog'dod	4 399	26,1 %
O'zbekiston	4 293	23,1 %
Oltiariq	4 225	25,6 %
Qo'shtepa	4 196	28,0 %
Toshloq	4 172	26,4 %
Beshariq	3 840	21,8 %
Dang'ara	3 819	28,0 %
Rishton	3 638	23,2 %
Furqat	2 273	24,8 %
Yozyovon	2 184	25,3 %
Quvasoy sh	1 734	23,8 %
So'x	1 227	20,2 %

## Tug'ilganlarning taqsimlanishi



2022- yil yanvar-sentabr oylarida **74,1** mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti **25,2** promilleni tashkil etdi hamda bu ko'rsatkich 2021- yilga nisbatan **0,8** promillega oshganligi kuzatildi (2021- yilda **26,0** promilleni tashkil etgan).


## Tug'ilishlarning chaqaloqlar soni bo'yicha taqsimlanishi

2022- yil yanvar-sentabr

  
3 nafar va undan  
ortiq egizak

0 ta




  
2 nafar egizak  
1 333 ta




1 nafar

72 722 ta

2022- yilning yanvar - sentabr oylarida qayd etilgan tug'ilishlarda 1 nafar va egizak tug'ilgan chaqaloqlar soni bo'yicha tahlil etilganda quyidagi ulushga ega bo'lganligi kuzatildi:

-  1 nafar – **98,2%**
-  2 nafar – **1,8%**
-  3 nafar va undan ortiq – **0,0%**



Tug'ilganlar soni  
yanvar-sentabr  
74,0 ming kishi



Tug'ilganlar soni  
yanvar-iyun  
45,0 ming kishi



Tug'ilganlar soni  
yanvar-mart  
22,0 ming kishi














**VAFOT ETGANLAR**

**Hududlar kesimida vafot etganlar soni va koeffitsiyenti**  
 2022- yil yanvar-sentabr, kishi

Yozyovon t.	3,8 %	1 482
Furqat t.	4,7 %	966
Dang'ara t.	5,2 %	935
Farg'ona t.	4,9 %	935
O'zbekiston t.	5,0 %	931
Toshloq t.	5,1 %	812
So'x t.	6,0 %	811
Rishton t.	4,3 %	809
Uchko'prik t.	4,2 %	755
Quva t.	4,0 %	735
Beshariq t.	5,5 %	726
Buvayda t.	3,7 %	703
Bog'dod t.	4,3 %	675
Qo'shtepa t.	4,5 %	675
Oltiariq t.	4,5 %	663
Marg'ilon sh.	5,1 %	432
Quvasoy sh.	5,2 %	382
Qo'qon sh.	4,8 %	366
Farg'ona sh.	6,6 %	328

**Vafot etganlarning taqsimlanishi**


2022- yilning yanvar-sentabr oylarida **14,1** mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga o'lim koeffitsiyenti **4,8** promilleni tashkil etgan hamda 2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **0,1** promillega oshganligi kuzatildi (2021- yilda **4,7** promilleni tashkil etgan).

**O'limning asosiy sabablar bo'yicha taqsimlanishi**

2022- yil yanvar-sentabr, kishi



2022- yilning yanvar-sentabr oylarida qayd etilgan o'lim holatining **60,8 %** i – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, **7,2 %** i – o'simtalardan, **8,0 %** i – nafas olish a'zolari kasalliklaridan, **6,5 %** i – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, **4,8 %** i – ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, **0,8 %** i – yuqumli va parazitlar kasalliklardan, **11,9 %** i boshqa kasalliklardan vafot etganlar.

Kasalliklar nomi	soni	ulushi foiz (%)
<b>Qon aylanish tizimi kasalliklaridan</b>	8586	60,8
<b>Nafas olish a'zolari kasalliklaridan</b>	1139	8,1
<b>O'simtalardan</b>	1014	7,2
<b>Baxtsiz hodisa zaharlanish va jarohatlanishlardan</b>	921	6,5
<b>Ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan</b>	675	4,8
<b>Yuqumli va parazitlar kasalliklardan</b>	109	0,8
<b>Boshqa kasalliklardan</b>	1677	11,9

**QAYD ETILGAN NIKOHLAR**

**Nikohlar, ming birlik**
**Hududlar kesimida nikohlar soni va koeffitsiyenti**


2022- yil yanvar-sentabr, birlik

Farg'ona sh.	6,9 %	1 548
Quva t.	7,1 %	1 417
Buvayda t.	7,7 %	1 372
Qo'qon sh.	7,0 %	1 362
Marg'ilon sh.	7,2 %	1 322
Uchko'prik t.	7,4 %	1 316
O'zbekiston t.	7,0 %	1 299
Farg'ona t.	7,8 %	1 298
Bag'dod t.	7,7 %	1 291
Rishton t.	8,1 %	1 272
Oltiariq t.	7,1 %	1 171
Toshloq t.	6,9 %	1 089
Qo'shtepa t.	7,1 %	1 063
Dang'ara t.	7,6 %	1 031
Beshariq t.	5,7 %	998
Furqat t.	7,2 %	659
Yozyovon t.	6,3 %	541
Quvasoy sh.	6,4 %	465
So'x t.	7,3 %	441

**Nikohlarning taqsimlanishi**

Shahar	Yil	Qishloq
891	Yanvar	940
48,7%		51,3%
793	Fevral	745
51,6%		48,4%
1972	Mart	0
100,0%		0,0%
735	Aprel	499
59,6%		40,4%
1449	May	866
62,6%		37,4%
1150	Iyun	752
60,5%		39,5%
1485	Iyul	1214
55,0%		45,0%
2136	Avgust	1616
56,9%		43,1%
2046	Sentabr	1603
56,1%		43,9%

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida **21,0** mingta nikoh qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nikoh koeffitsiyenti **7,1** promilleni tashkil etgan hamda 2021- yilga nisbatan **0,6** promillega kamayganligi kuzatildi (2021- yilning yanvar-iyun oylarida **7,7** promille bo'lgan).

**NIKOHDAN AJRALISHLAR**

**Nikohdan ajralishlarning taqsimlanishi**

Shahar	Yanvar	Qishloq
259		146
64,0%		36,0%
Shahar	Fevral	Qishloq
192		121
61,3%		38,7%
Shahar	Mart	Qishloq
427		26
94,3%		5,7%
Shahar	Aprel	Qishloq
308		149
67,4%		32,6%
Shahar	May	Qishloq
314		155
67,0%		33,0%
Shahar	Iyun	Qishloq
284		148
65,7%		34,3%
Shahar	Iyul	Qishloq
295		131
69,2%		30,8%
Shahar	Avqust	Qishloq
301		207
59,3%		40,7%
Shahar	Sentabr	Qishloq
343		173
66,5%		33,5%


**Nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti**

2022- yil yanvar-sentabr, birlik

Shahar	Koeffitsiyenti, %	Soni
Farg'ona sh.	2,4 %	539
Qo'qon sh.	2,3 %	447
Marg'ilon sh.	1,5 %	278
Farg'ona t.	1,6 %	264
Rishton t.	1,5 %	241
Bag'dod t.	1,4 %	233
O'zbekiston t.	1,2 %	228
Quva t.	1,0 %	203
Oltiariq t.	1,1 %	181
Dang'ara t.	1,3 %	181
Buvayda t.	1,0 %	178
Beshariq t.	0,9 %	161
Uchko'prik t.	0,9 %	157
Qo'shtepa t.	1,0 %	156
Toshloq t.	1,0 %	153
Quvasoy sh.	1,7 %	124
Yozyovon t.	1,2 %	101
Furqat t.	1,0 %	96
So'x t.	1,0 %	58

2022- yil yanvar-sentabr oylarida **4,0** mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti **1,4** promilleni tashkil etgan hamda 2021- yilga nisbatan **0,3** promillega oshganligi kuzatildi (2021- yil yanvar-sentabr oylarida **1,1** promille bo'lgan).



**Nikohdan ajrashganlarning farzandlar soni bo‘yicha taqsimlanishi**
*2022- yil yanvar-sentabr*


2022- yil yanvar-sentabr oylarida respublikada jami nikohdan ajrashganlarning **34,0 %** i farzandsiz, **46,4 %** i bitta farzand bilan va **19,6 %** i ikki va undan ortiq farzand bilan ajrashganlar hissasiga to‘g‘ri kelgan.

Nikohdan ajrashganlar	soni	ulushi foiz (%)
<b>farzandsiz ajrashgan</b>	1353	34,0
<b>1 nafar farzand bilan ajrashgan</b>	1846	46,4
<b>2 va undan ortiq farzand bilan ajrashgan</b>	780	19,6

## AHOLI MIGRATSIYASI

*(Doimiy yashash maqsadida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar)*


2022- yil yanvar-sentabr oylarida respublika bo'yicha doimiy yashash maqsadida ko'chib kelganlar jami soni **6 787** kishini tashkil etdi. Doimiy yashash maqsadida ko'chib ketganlar soni jami **8 908** kishini tashkil etib, migratsiya saldosini minus **2 121** kishini tashkil etdi.

### O'zbekiston Respublikasi bo'yicha ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni

*2022- yil yanvar-sentabr, kishi*

	Ko'chib kelganlar Jami	Ko'chib ketganlar Jami
<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>6 787</b>	<b>8 908</b>
<i>shaharlar:</i>		
Farg'ona sh.	2320	1288
Qo'qon sh.	337	1051
Quvasoy sh.	353	245
Marg'ilon sh.	41	932
<i>tumanlar:</i>		
Oltiariq t.	103	336
Qo'shtepa t.	502	276
Bag'dod t.	53	355
Buvayda t.	226	390
Beshariq t.	160	576
Quva t.	120	479
Uchko'prik t.	283	401
Rishton t.	149	352
So'x t.	59	29
Toshloq t.	263	314
O'zbekiston t.	341	546
Farg'ona t.	611	509
Dang'ara t.	474	372
Furqat t.	292	298
Yozyovon t.	100	159

### JAMI KO'CHIB KELGANLAR





### Ko'chib kelganlar soni va koeffitsiyenti

2022- yil yanvar-sentabr, kishi

Farg'ona sh.	10,3	2320
Farg'ona t.	3,7 %	611
Qo'shtepa t.	3,4 %	502
Dang'ara t.	3,5 %	474
Quvasoy sh.	4,8 %	353
O'zbekiston t.	1,8 %	341
Qo'qon sh.	1,7 %	337
Furqat t.	3,2 %	292
Uchko'prik t.	1,6 %	283
Toshloq t.	1,7 %	263
Buvayda t.	1,3 %	226
Beshariq t.	0,9 %	160
Rishton t.	0,9 %	149
Quva t.	0,6 %	120
Oltiariq t.	0,6 %	103
Yozyovon t.	1,2 %	100
So'x t.	1,0 %	59
Bag'dod t.	0,3 %	53
Marg'ilon sh.	0,2 %	41

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida **6,8** mingta ko'chib kelganlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga ko'chib kelish koeffitsiyenti **2,3** promilleni tashkil etgan hamda 2021- yilga nisbatan **0,6** promillega kamayganligi kuzatildi (2021- yilning yanvar-sentabr oylarida **2,9** promille bo'lgan).



**JAMI KO'CHIB KETGANLAR**



■ Ko'chib ketganlar, ming kishi ● O'sish sur'ati, % da

**Ko'chib ketganlar soni va koeffitsiyenti**

2022- yil yanvar-sentabr, kishi

Farg'ona sh.	1 288	5,7 %
Qo'qon sh.	1 051	5,4 %
Marg'ilon sh.	932	5,1 %
Beshariq t.	576	3,3 %
O'zbekiston t.	546	2,9 %
Farg'ona t.	509	3,1 %
Quva t.	479	2,4 %
Uchko'prik t.	401	2,2 %
Buvayda t.	390	2,2 %
Dang'ara t.	372	2,7 %
Bag'dod t.	355	2,1 %
Rishton t.	352	2,2 %
Oltiariq t.	336	2,0 %
Toshloq t.	314	2,0 %
Furqat t.	298	3,2 %
Qo'shtepa t.	276	1,8 %
Quvasoy sh.	245	3,4 %
Yozyovon t.	159	1,8 %
So'x t.	29	0,5 %

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida **8,9** mingta ko'chib ketganlar qayd etilgan bo'lib, har 1 000 aholiga ko'chib ketish koeffitsiyenti **3,0** promilleni tashkil etgan hamda 2021- yilga nisbatan **1,0** promillega kamayganligi kuzatildi (2021- yilning yanvar-sentabr oylarida **4,0** promille bo'lgan).

**Ko'chib ketganlarning taqsimlanishi**




## Demografik ko'rsatkichlarga izohlar

**Doimiy aholi** – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

**Shahar aholisi** – shahar hududlarida, ya'ni me'yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

**Qishloq aholisi** – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

**Doimiy aholi sonini baholash** – oxirgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug'ilganlar va muayan hududga ko'chib kelganlar soni qo'shib, o'lganlar va muayan hududdan ko'chib ketganlar soni ayriladi.

**Tug'ilish** – tug'ilish jarayonlarining sodir bo'lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkich.

**1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti** – hisobot yilida jami tug'ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

**1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti** – hisobot yilida jami o'lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

**O'lim sabablari** – o'limga yoki uning sodir bo'lishiga ta'sir etgan kasaliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o'lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo'lgan baxtsiz hodisa va zo'ravonlik holatlari.

**Nikoh** – erkak va ayol o'rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o'zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o'rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro'yxatdan o'tkazish natijasida o'rnatiladi.

**1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti** – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

**Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish)** – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to'liq yuridik to'xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng bekor qilingan hisoblanadi.

**1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti** – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

**Ko'chib kelganlar soni** – ko'chib kelganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko'chib kelish.



**Ko'chib ketganlar soni** – ko'chib ketganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko'chib ketish.

**Aholining migratsion o'sishi (farqi)** – hisobot davrida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni o'rtasidagi farqning absolyut miqdori.

**Demografiya va mehnat statistikasi bo'limi**

*Tel: 73 241-97-74*